

**Toshkent davlat agrar universitetida 2024-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish  
tizimida amalga oshirilgan faoliyat haqida**  
**M A ‘ L U M O T.**

Toshkent davlat agrar universitetida korrupsiyaga qarshi kurashish va ta’lim tizimini “Korrupsiyasiz soxaga” aylantirish bo‘yicha tegishli tadbirlar 4 –chorakda davom etdi. Faoliyatni qonuniy yo‘lga qo‘yish uchun asos bo‘ladigan tegishli me’yoriy xujjatlar tasdiqlanib va barcha fakultetlar, kafedralarga yetkazilgan. Xususan, qishloq xo‘jaligi vazirining 2024 yil 4 dekabrdagi 283-son buyrug‘i, oliv ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 8 oktyabrdagi 366 va 2024 yil 10 oktyabrdagi 374-son buyruqlariga asosan universitet ichki buyruqlari ishlab chiqildi. “Manfaatlar to‘qnashuvi haqida”gi Qonunni universitet professor-o‘qituvchilari, xodimlari va talabalari orasida targ‘iboti davom ettirilib, korrupsiya illatlarini jamiyat rivojiga bo‘lgan salbiy oqibatlari haqida profilaktik-tushuntirish ishlari davom ettirildi.

“9 dekabr Xalkaro korrupsiyaga qarshi kurash kuni” munosabati bilan universitet rahbariyati tomonidan tegishli ichki buyruqlar asosida qator tadbirlar o‘tkazildi. Xususan, “Rasmlar tanlovi”, “Insholar tanlovi”, “Videoroliklar tanlovi”. Universitetda korrupsiyaga qarshi kurash yo‘nalishida amalga oshirib kelinayotgan ishlarni keng ommaga ma’lum qilish maqsadida “Ochiq eshiklar” tadbiri o‘tkazildi. Bu boradagi tadbirlar davom ettirilmoqda.

Universitet respublika bo‘yicha qishloq xo‘jaligi yo‘nalishida bakalavriyat, magistratura, doktarantura, 2-muttaxassislik, tavsiya asosidagi va texnikumlar bitiruvchilari bo‘yicha qabul qilingan talabgorlari talablikka qabul qilish jarayoni nazorat qilindi. Barchasi harakatlarni shaffof tarzda amalga oshishi ta’minlandi. Bundan tashqari semestrdan qarzdor bo‘lib qolgan talabalar tomonidan qo‘srimcha o‘qitish ishlari, o‘qishni ko‘chirish va tiklash jarayonlarni nazoratga olinib korrupsiyaviy xolatlarni keltirib chiqaruvchi xolatlardan chegaralab borildi. Ta’lim olish jarayonida talabalar muammolarini hal etishda inson omilini kamaytirish maksadida “Registrar ofisi” tashkil etilib to‘liq shtat birligi bilan faoliyat boshladi. Ofis xodimlarini korrupsiyaviy xolatlardan chegaralash maqsida ular bilan suhbat o‘tkazildi.

Xisobot davrida KQK MK majlisining 2024 yil 26 iyundagi 15 sonli va 16-sonli bayonnomalari asosida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha universitet miqyosida amalga oshiriladligan chora-tadbirlar rejalaridan kelib chiqqan vazifalarni ijrosini ta’minalash davom ettirildi. Xususan, professor-o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasida korruption xolatlarga qarshi chellenjlar, ramlar tanlovi, videoroliklar yaratish, uchrashuvlar va suhbatlar o‘tkazish va targ‘iboti ishlarini kuchaytirish bo‘yicha tadbirlar amalga oshirildi. Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 27 noyabrdagi 200 –sonli farmoni talablaridan kelib chiqqan xolda tasdiqlangan chora-tadbirlar rejasi asosida 4- chorakda belgilab olingan tegishli tadbirlar amalga oshirildi. Mazkur ko‘rsatmalar universitetning barcha bo‘limlari, fakultetlari va kafedralariga yetkazilib, tegishli tushuntirish ishlari amalga oshirib kelindi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2024 yil 2 apreldagi 90- buyrug‘i asosida universitetning buyrug‘iga uzgartirish tugrisidagi 2024 yil 4 dekabrdagi 283-sonli buyrug‘i asosida universitet ichki buyrug‘i tasdiklandi. (2024 yil 10 dekabr 1-9-6/509). Shuningdek, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 13 iyundagi 210 -sonli va qishloq xo‘jaligi vazirligining 11 iyundagi 155-sonli buyruqlari asosida universitetda manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish bo‘yicha 25 –iyun kuni 1-9-6/243-sonli buyruq asosida universitet jamoasi orasida tegishli tadbirlar davom ettirildi.

4 chorak davomida universitetga yangi ishga kirgan xodimlardan manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha arizalar olinib va tahlil etib chiqildi. Tahlil natijasiga ko‘ra salbiy holatlar aniqlanmadidi. Ularni korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishidagi o‘qitish ishlari o‘tkazildi. Mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishidagi majburiyatlar kiritildi. Moliyaviy yo‘nalishda 4 –chorak davomida asosiy vositalarni xarid qilish va to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar asosida vositalarni va xizmatlarni xarid qilish jarayoni kuzatilmadi. Prokuratura organlari tomonidan Toshkent viloyati g‘aznachilik idorasida tekshiruv ishlari amalga oshirilgani sabab barcha o‘quv muassasalari qatorida universitet xisob raqamlariga taqiq qo‘yilgan.

Xisobot davrida 1 nafar kafedra mudiri, 1 nafar sektor mudiri, 1 nafar fakultet dekani va universitet rektori lozimlariga rotatsiya asosida taiynlovlar amalga oshirildi. Ularga nisbatan xodimlar ishlari bo‘yicha boshqarma bilan tekshiruvlar amalga oshirilgan va obro‘sizlantiruvchi ma’lumotlar aniqlanmagan.

Universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha o‘qitish yo‘lga qo‘yilgan. Xisobot davrida 2 nafar profesor–o‘qituvichiga tegishli tartibda korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishidagi bevosita bilimlar berildi.

Hisobot davrida xodimlarning korrupsiyaviy xatti-xarakatlari, manfaatlar to‘qnashuvi, korrupsiyaga qarshi boshqa qonunbuzarliklar bilan bog‘liq masalalar to‘g‘risida universitetda yo‘lga quyilgan aloqa kanallari orqali ma’lumotlar kelib tushmadi.

Xisobot davrida universitetda korruption xarakatlari sodir etilmadi.

Universitetda korrupsiyaga qarshi targ‘ibot va tashviqot tadbirlari tashkil etilgan. Xususan, Veb sayt va telegramm kanallarida tegishli materillar joylashtirib kelinmoqda.

“Komplaens nazorat” tizimini boshqarish

korrupsiyaga qarishi kurashish bo‘limi

“20 “ dekabr 2024 yil.